

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

JORAI

Journal of


RESEARCH

and

INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

Volume I, Issue 5



IMFAKTOR
PAGES

MAY | 2023

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

1-ЖИЛД, 5-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-1, НОМЕР-5

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-1, ISSUE-5

ТОШКЕНТ - 2023

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-5>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

Омонов Қ. – филология фанлари доктори, профессор
Муҳибова У. – филология фанлари доктори, профессор
Каримов Б. – филология фанлари доктори, профессор
Рашидов Т. – санъатшунослик фанлари номзоди, доцент
Мухамедова Ф. – санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори
Тешабоев Ж. – санъатшунослик фанлари доктори, профессор
Эгамбердиев И. – техника фанлари доктори, профессор
Ташманов Е. – техника фанлари доктори, профессор
Салихова О. – техника фанлари номзоди, доценти
Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Жумамуратов А. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Камолов Б. – география фанлари доктори, профессор
Миракмалов М. – география фанлари номзоди, доцент
Тожиева З. – география фанлари номзоди, доцент
Юсупова М. – архитектура фанлари доктори, профессор
Аскарлов Ш. – архитектура фанлари доктори, профессор
Назарова Д. – архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

Техника фанлари

ERGASHEVA Nafisa Muzaffar qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
magistranti

YO'LCHIYEV Shahriyor Husanboyevich
Andijon davlat pedagogika instituti
proseffori
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7945565>

ТА'ЛИМ ТАРБИЯНИНГ ЗАМОНАВИЙ ШАКЛЛАРИ

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tarbiyaviy va ilmiy, an'anaviy shakllarni yaratish va ta'lim jarayoniga tadbiiq etish. Ta'lim tarbiyaning zamonaviy shakllarini o'rganish.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiya, dasturiy taminot, inovatsion texnologiya, uzluksiz ta'lim, Interaktiv ta'lim.

ЭРГАШЕВА Нафисы Музаффар кизи
Андижанский государственный педагогический институт
магистр

ЁЛЧИЕВ Шахриёр Хусанбоевич
Андижанский государственный педагогический институт
профессор

ОБРАЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ ВОСПИТАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается создание учебно-научных, традиционных форм с использованием современных технологий и их применение в образовательном процессе. Обучение современным формам обучения.

Ключевые слова: цифровые технологии, программное обеспечение, инновационные технологии, непрерывное образование, интерактивное образование.

ERGASHEVA Nafisa Muzaffar kizi
Andijan State Pedagogical Institute
master

YOLCHIYEV Shahriyor Husanboyevich
Andijan State Pedagogical Institute
Professor

ОБРАЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ ВОСПИТАНИЯ

Abstract: In this article, the creation of educational and scientific, traditional forms using modern technologies and their application to the educational process. Learning modern forms of education.

Key words: Digital technology, software, innovative technology, continuous education, Interactive education.

Ta'lim tarbiya, insonning shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan jarayonlardan biridir. Bu jarayon davomida insonlar o'zlarini o'rganish, bilim va ko'nikmalarini oshirish, maqsad va ma'noga ega bo'lishadi. Ta'lim tarbiya ko'nikmalari davomida insonlar umumiy bilimlarni o'rganish, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotni yuksaltirish, ijtimoiy sohada qatnashuvlarini rivojlantirish, qadriyatli fuqarolar sifatida turli sohalarida amalda qo'yilib borilishi kerak. Jamiyatimizning ijtimoiy taraqqiyoti va uni harakatga keltiruvchi shaxstarbiyasi, uning yo'nalishi va mazmuni, jamiyat – shaxs, pedagogikafaning asosiy masalasidir. Ushbu nuqtai nazardan pedagogika fani mazmunini zamon talabiga moslashtirish hamda takomillashtirish quyidagi to'rt ijtimoiy zaruratdan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasidagi bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy iqtisodiy zarurat.
2. Uzluksiz ta'lim tizimidagi tub sifat o'zgarishlar.
3. Ta'lim mazmuni takomillashtirishdagi ilmiy-nazariy zaruratlar.

4. Ta'lim jarayonini tashkil etishdagi amaliy-uslubiy zaruratlar. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining so'ngi uchinchi bosqichida yuqorida keltirilgan ijtimoiy zaruratlar ta'lim-tarbiya sohasiga yangicha yondoshishni ya'ni, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar o'quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirishda o'zining samarali natijasini bermoqda. Zamonaviy shakllar esa ta'lim tarbiyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy shakllar, turli xil texnologiyalar va kompyuter dasturlaridan foydalanib ta'lim-tarbiya jarayonini yanada samarali va noma'lum darajada oshiradi. Yuqorida keltirilgan mazkur yo'nalishda ta'limga eng yaxshi usullarni kiritidik:

1. Interaktiv ta'lim: Bu usulda talaba bilimni mashqlash orqali o'rgangan holda mustaqil ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu usul orqali talabalarga muhim ko'mak beriladi va ular o'zlarining o'rganish jarayonida aktiv qatnashuvlarini ko'rsatishadi.

2. Kompyuter tizimlari: Kompyuter tizimlari yordamida ta'lim-tarbiya jarayonini yanada samarali va noma'lum darajada oshirish mumkin. Bu usul talabalarga yuqori sifatli bilimni yanada tez va samarali tarzda o'rgatish imkoniyatini beradi.

3. Multimedialarni ishlatish: Bu usulda video, audio, rasmlar va boshqa turdagi multimedialar yordamida talabalarga bilim qayta ko'rsatiladi [1].

Pedagogik texnologiyaga-1972 yilda yapon olimi Sakomota tamonidan asos solingan. Pedagogik texnologiya o'qitishning qulayligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bo'lgan bilimlar soxasidir. Sakomota pedagogik atamalarga texnologiya, loyihalash singari so'zlar kirib kelishi ta'limning mazmuni va metodlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda. Shunday muammolardan biri pedagogik texnologiya so'zining talqin qilinayotganidir.

Xo'sh pedagogik texnologiya nima? U nima uchun bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida zaruratga aylandi? O'quv jarayonida qo'llab kelinayotgan loyihalashga yangicha yondashish nima uchun zarur bo'lib qoldi? degan savollarga quydagicha yondashish mumkin bo'ladi.

Yangi XXI asrda pedagogikaning asosiy vazifasi eski, totalitar mafkuradan qutilgan, qullik, mutelikni tan olmaydigan, ijtimoiy zulmdan ozod, haq-huquqini tanigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga ishongan, o'z fikri, qarashlariga ega bo'lib, atrofidagi voqea hodisalarni holisona tahlil qila oladigan, salohiyatli, fidokor, ezgu niyatli insonni tarbiyalashdan iborat. Bu o'z navbatida ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslarni o'rganishni va ta'lim jarayoniga tadbiiq etishni taqozo etadi.

Ta'lim mazmuni, uning komponentlari, tarkibi, vazifalari haqida so'z ketganda dalillar bilan qonuniyatlar, yaqqollik bilan mavhumlik, bilimlar bilan haqiqatni mustaqil bilish metodlari o'rtasidagi maqbul keladigan munosabatlarni aniqlash zarur. Ayniqsa, darslik va o'quv qo'llanmalarda terminologik qat'iylik, bir qiymatlilikka erishish kerak. Ta'limni islox qilish ta'lim jarayoni, uning strukturasi va metodlarini qanday tushinib etishga ham bog'liq.

Ta'lim jarayoni bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma'noni anglatadi. Ya'ni bu:

- o'quvchilarda bilim, malaka va ko'nikmalarni xosil qilish;
- ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarini shakllantirish;
- o'quvchilarning muayyan darajada o'qimishli,
- madaniyatli, tarbiyali chin inson bo'lishiga erishish;
- ularning qobiliyatini o'stirishdan iborat [2].

O'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan xamda tizimga solingan bilim malaka va ko'nikmalarni aniq belgilangan doirasini tushiniladi. Ta'lim mazmuni DTS o'quv rejasi, dastur va darsliklarda ifodalangan.

Davlat ta'lim standarti o'quvchilarning umumiy tayyorgarligiga, bilimiga va saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal talabdir. DTS barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir. U ta'lim mazmunining o'zagi hisoblanadi.

Ta'limda davlat standartlari haqida so'z borar ekan, ta'limni standartlashtirish insoniyatning ijtimoiy ongida ro'y bergan tub o'zgarishlar tufayli kelib chiqqan zarurat ekanini unutmashimiz kerak. Chunki, axborotlar almashinuvi maksimal chegaraga etgan davrimizda dunyoning bir burchagida yashayotgan kishi ikkinchi qutbda sodir bo'layotgan voqealarni bilibgina qolmay, ularning ne boisda aynan shu tarzda ro'y berganini anglashi va his qilishi zarurdir. Shuning uchun ham iqtisodiy axvoli va taraqqiyot darajasi turlicha bo'lgan davlatlarda yashovchi barcha kishilarning fikrlash darajasini iloji boricha bir xil holatga keltirish ehtiyoji paydo bo'ldi.

Standart-ta'limda yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda o'quvchini xaddan tashqari o'zgartirib yubormaslik talablariga rioya qilish, ya'ni o'quvchi yoshiga mos, uni bajarishga qurbi etadigan darajada bo'lishi kerak. Bunda albatta ta'lim oluvchining qiziqishi, xohishi, ehtiyoji hisobga olinishi lozim.

Ta'lim standartlarini o'zlashtirishda shaxsga muhim ahamiyat berilishi, unga yakka tartibda yondashilishi maqsadga muvofiqdir. Standartlarini o'quv jarayoniga tadbiiq etishda o'ta puxtalik bilan tajriba-sinovdan o'tkaziladi va shu asosda bosqichma-bosqich o'quv jarayoniga kiritib boriladi.

Mamlakatimizda pedagogika ilmi ham, amaliyoti ham yangilanib bormoqda. Ma'lumki, har qanday millatning yangilanishi yoshlar tarbiyasidan boshlanadi. Yoshlar esa bugungi kunda oilada va asosan ta'lim-tarbiya muassasalarida shakllantiriladi. Shuning uchun ham mustaqil davlatimiz va uning rahbariyati ana shu muassasalar faoliyati imkon qadar zamon talablari darajasida bo'lishiga e'tiborini qaratmoqda.

Bugungi kunda zamon talabiga mos keladigan dars jarayonlarini tashkil uchun zamonaviy texnologiyalardan va inovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishdagi yangi natijalarga erishilmoqda. Bunday darslarni noan'anaviy tarzda tashkil etilgan darslar sifatida ko'rishimiz ham mumkin [3].

Noan'anaviy dars an'anaviy darsdan o'zining tashkil qilish usullarining rang-barangligi bilan, xillari va metodlari bilan farq qiladi.

Noan'anaviy dars o'tishda quyidagi metodlar ko'p qo'llanadi:

1. Konferensiya darslari.
2. Seminar dars.
3. Texnika vositalari yordamida dars o'tish.
4. O'ylab top.
5. Bahs-munozara darsi.
6. Kasbga bog'lab dars o'tish.
7. Eksperimental dars o'tish.
8. Mustaqil ishlar (yozma, og'zaki).
9. Ilmiy-ommabop adabiyotlardan foydalanish.

Zamonaviy ta'lim berishda o'qituvchi eng samarali usul bo'lgan innovatsion usullarni bilishi va amaliyotda qo'llay olishi kerak.

Innovatsiya- lotincha so'z bo'lib, «yangilikni kiritaman, tatbiq etaman, o'zgartiraman» degan ma'nolarni bildiradi.

Dars jarayonini bugungi kunda quyidagi innovatsion usullardan foydalangan holda tashkil etish maqsadga muvofiq:

- Modellashtirish;
- Namoyish qilish;
- Kichik guruhlarda ishlash;
- Aqliy xujum;
- Tanqidiy fikrlash;
- Nuqtai nazarlar;
- Rolli o'yinlar;
- Modifikatsiyalangan ma'ruza;
- Harakatli o'yinlar;
- Axborot texnologiyalari (kompyuter) yordamida;
- O'qituvchi innovatsion usullardan foydalana bilishi va amaliyotga qo'llay olishi uchun o'qituvchi quyidagi qo'yilgan innovatika talablariga javob bera olishi lozim.
- innovatsion texnologiya tushunchasini, uning mamunini, mohiyatini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarning ta'lim maqsadini amalga oshirishdagi o'rni va rolini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarni fanlar bo'yicha qo'llash printsiplarini bilishi;
- ta'limiy va ishchanlik o'yinlarini bilishi;
- muammoli rivojlantiruvchi ta'lim metodlarini bilishi;
- o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta'minlash yo'llarini bilishi;
- o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashi mahoratini oshirish usullarini egallashi;
- ko'rgazmali o'qitish usullarini bilishi va egallashi;
- ta'lim-tarbiyaning faollashtiruvchi usullarini bilishi va egallashi kerak [4].

Xulosa qilib aytsak, yangi ta'lim tizimi, mazmuni, o'quv rejasi, o'quv dasturlari, darsliklar asosida o'quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashishni, uni yangicha tashkil etish zaruriyati tug'ilmoqda.

Birinchi Prezidentimiz alohida ta'kidlaganlaridek, biz «mamlakatimizning istiqboli yosh avlod qanday tarbiya topishiga va qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotda nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak».

Shu sababli ham birinchi navbatda, ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish, chuqurlashtirish, takomillashtirish, xususan, ta'lim mazmuniga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil etuvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak atrofga munosabatlarni ham kiritish g'oyasi uchun kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yildi.

Zamonaviy shakllardan foydalanib ta'lim-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli oshirish uchun hamkorlik va koordinatsiya kerak.

Talabalar, o'qituvchilar, maktab direktorlari va oilalar birlashib ta'lim-tarbiya jarayonini yanada samarali hollarda amalga oshirish uchun harakat qilishi kerak. Bunday harakatlarning natijasida, insonlar maqsad va ma'noga ega bo'lib ijtimoiy-ma'naviy sohadagi faoliyatlariga muvaffaqiyatli ravishda ishtirok etadilar. Sinflarda an'anaviy usullar bilan o'qitish kabi passiv ta'lim usullari o'rniga o'qituvchilar faolroq rol o'ynashlari va o'quv jarayonidagi ishtirokini oshirishlari kerak. Shunday qilib, talabalar o'z o'rganish tezligi va ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim olishlari mumkin bo'ladi.

Bu innovatsiyalarning qaytishi jamiyatda malakali va qurollangan shaxslarni tayyorlashga xizmat qiladi. Binobarin, "Ta'lim tarbiyaning zamonaviy shakllari" dissertatsiyasida ta'lim tizimini bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda qayta qurish g'oyasi himoya qilinadi. Ushbu konfiguratsiyada texnologik vositalardan foydalanish, faol ta'lim usullarini qo'llash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish kabi masalalar muhim o'rin tutadi. Ushbu innovatsiyalar tufayli insonlar jamiyatga foydaliroq bo'lishi mumkin bo'lgan malakali shaxs sifatida yetishadi [5].

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES

1. M.Aripov, A.Haydarov, Informatika asoslari, O‘quv qo‘llanma, Toshkent: O‘qituvchi, 2002. 432 b.
2. Tolipov O‘, Usmonboeva M. «Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari». O‘quv qo‘llanma. Fan. O‘zPFITI, 2006.
3. J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish”. Toshkent 2008 y.
4. Isoqov I., I. Suyunov va boshqalar. Fanlarni o‘zlashtirishda o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlari. «Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-metodik seminar ma’ruza materiallari to‘plami.Guliston,2016y.,15-18betlar.
- 5.R.Ishmuhammedov, A.Abduqodirov, A.Pardaev “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). Toshkent “Iste’dod” nashriyoti, 2008 y.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 5-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-5

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-5

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz